

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI¹¹⁸

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

O'ZBEKISTON EKOLOGIK SIYOSATINING ASOSIY YO'NALISHLARI

Tleumuratova Maxida

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro munosabatlar fakulteti magistratura bosqichi bitiruvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezis O'zbekistonning ekologik siyosatining asosiy yo'nalishlarini tahlil qiladi, barqaror rivojlanish yo'lida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ekologik siyosatning asosiy qadamlarini ko'rib chiqadi va mazkur sohadagi muhim vazifalarni ta'kidlaydi. Shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiysi maqsad va vazifalarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: ekologik siyosat, barqaror rivojlanish, tabiiy resurslar, suv manbalari, biologik resurslar, BMT, atrof-muhitni muhofaza qilish, MDH Davlatlararo Ekologiya Kengashi.

O'zbekistonning ekologik siyosati mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi va aholining farovonligini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi. Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, atrof-muhit ifloslanishi kabi muammolar butun dunyo, shu jumladan O'zbekistonni ham jiddiy tashvishga solmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish va kelajak avlodlar uchun toza va sog'lom muhitni saqlab qolish maqsadida O'zbekiston hukumatining ekologik siyosati faol ravishda rivojlanmoqda.

Qisqa tarixiy davrda respublika taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ymaydi va sezilarli muvaffaqiyatlarga erisha olmaydi. Bu Harakatlar strategiyasi asosida amalga oshirilgan, o'z navbatida, xalq farovonligi darajasini oshirish, ijtimoiy adolatni ta'minlab, butun sohaning innovatsion rivojlanishiga yangi sur'at bag'ishlagan, inson huquq va erkinliklari himoyasini, qonun ustuvorligini ta'minlash imkonini bergen kompleks chora-tadbirlar tufayli amalga oshirildi.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan bunday tizimli yondashuv oldinga siljishning navbatdagi evolyutsion qadami – yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining qabul qilinishi, mehnatkash va dono xalqning kuch va salohiyatini buniyodkorlik yo'nalishiga yo'naltirish uchun poydevor bo'ldi. Dasturning yana bir muhim jihat – mamlakatimiz ko'p millatli aholisini umumiyliz ezgu maqsadlarga erishish yo'lida birlashtirgani fuqarolarda ertangi kunga, o'z kuchlariga ishonch bag'ishlaydi.

O'zbekiston 1993-yildan buyon BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Hadli konventsiyasining (Nyu-York, 1992-yil may) a'zosi hisoblanadi. Ushbu Konvensiyaga Kioto protokoli 1998-yilda imzolangan va 1999-yilda ratifikatsiya qilingan, Parij bitimi esa 2017-yilda imzolangan va 2018 -yilda ratifikatsiya qilingan.

O'zbekiston 1992-yilda imzolangan MDH Davlatlararo Ekologiya Kengashining teng huquqli a'zosi hisoblanadi.

Bugungi kunda, O'zbekiston Xitoy, Gruziya, Hindiston, Isroi, Yaponiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Malayziya, Koreya Respublikasi, Slovakiya, Shveytsariya, Tojikiston, Tailand, Turkiya, Turkmaniston va Ukraina bilan atrof-muhitga tegishli komponentlar kiritilgan bir qator ikki tomonlama bitimlar imzolagan.

Ushbu bitimlarda O'zbekiston quyidagi sohalarda hamkorlik qilishi ko'zda tutilgan:

- suv va havoning ifloslanishi monitoringi texnologiyalari;

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI¹¹⁹

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

- tabiatni muhofaza qilish ilmi va texnologiyalari tadqiqotlari;
- ekologik ta'lim, mutaxassislarini tayyorlash va targ'ibot;
- tabiatni muhofaza qilish jarayonlarini boshqarish va biologik turlarni himoya qilish;
- ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyasi;
- tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlar, qonun-qoidalar, siyosat va standartlar, shu jumladan sanoat ishlab chiqarishi va mahsulotlari uchun ekologik standartlar;
- tomonlar kelishib olgan atrof-muhitni muhofaza qilish va yaxshilashga taalluqli hamkorlikning boshqa sohalari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'rurasida asosiy qomusimiz kafili sifatida Konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so'zsiz bajarish, "Inson qadri uchun" degan ustuvor tamoyilni to'la ro'yobga chiqarish bundan buyon ham faoliyatimning bosh mezoni bo'lib qolishini alohida ta'kidladi. Shu bilan birga, inson qadr-qimmati haqida gapirar ekanmiz, "Biz mamlakatimizning har bir fuqarosi uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma, malakali tibbiy xizmat, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya va sog'lom ekologik muhit yaratishni nazarda tutamiz", — dedi Prezidentimiz.

Yangi O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi o'zaro bog'liq yetti yo'nalishdan iborat. Oltinchi yo'nalish – "Global muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yondashish". Bu nima? Buning uchun Orol dengizining qurib qolgan tubida qo'shimcha 500 ming hektar yashil maydon barpo etish, ularning umumiyligi maydonini 2026-yil oxirigacha 2,5 million hektarga yoki hududning 78 foiziga yetkazish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, Orol bo'yida bioxilma-xillikni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi va tuproq eroziyasining oldini olishga qaratilgan xalqaro Yashil iqlim jamg'armasi va Global ekologik fond dasturlari asosidagi loyihalar amalga oshiriladi.

Ushbu ekologik dastur, konsepsiya va rejorda hozirgi kunda hamda kelajakda mamlakatimizda jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabat shakli qanday bo'lishi, uning ekologik konsepsiysi, maqsadi va prinsiplari belgilab berilgan. Ekologik maqsad va vazifalarni amalga oshirishning taktik va strategik harakatlar dasturi va yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining asosiy maqsadi - fuqarolarning hayotiy zarur ehtiyoji bo'lgan ekologik xavfsiz muhitni ta'minlash uchun mamlakatimizda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklash, ya'ni tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi iqtisodiy-ekologik munosabat shaklini qo'llashdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq yer, uning yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar milliy boylik bo'lib, ulardan oqilona foydalanish va davlat muhofazasida bo'lishi shart.

Atrof-muhitning hozirgi holati, global va mintaqaviy ekologik muammolar, yangi ekologik tahdidlarni tahlil qilish O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini ishlab chiqish zaruratini tug'dirdi. Bu O'zbekiston Respublikasida aholi turmush sifatini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonining ajralmas qismidir. Ushbu konsepsiya O'zbekiston ekologik siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Bular:

I. Orol dengizi halokati oqibatlarini yumshatish. Bu borada o'tkazilishi lozim bo'lgan choralar quyidagilardan iborat: Orol dengizi qurigan tubining O'zbekiston qismidagi o'rmonzorlar

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI¹²⁰

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

maydonining ko‘paytirish va Nukus, Urganch, Xiva shaharlari atrofida mahalliy daraxt va butalardan “yashil belbog” yaratishdir.

II. Yer resurslari va yer osti boyliklarini muhofaza qilish yo‘nalishi tuproq unumdorligini va ekinlar hosildorligini saqlash va oshirish uchun qisqa almashlab ekish va g‘o‘za-beda almashlab ekishni keng joriy etishni ta‘minlash va ekinlarni yetishtirishda organik dehqonchilik usullarini joriy etishni, buzilgan yerkarni tiklash va meliorativ holatini yaxshilashni ta‘minlashni, kollektor-drenaj tarmog‘ini rekonstruksiya qilish va tiklashni ta‘minlashni taqozo etadi.

III. Suv resurslarini muhofaza qilish doirasida esa suv resurslari yo‘qotishlarini qisqartirish, qishloq xo‘jaligida solishtirma gektarga nisbatan suv iste‘molini qisqartirish, tomchilatib sug‘orish va suvni tejovchi boshqa texnologiyalarga o‘tkazilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlarini kengaytirish, oqava suvlarni tozalash samaradorligini oshirish, sanoatda suv ta‘minotining aylanma sikli amaliyotini kengaytirish, respublika aholisini markazlashtirilgan kanalizatsiya tizimi bilan qamrab olish qamrovini oshirish ishlari amalga oshirilishi lozim.

IV. Atmosfera havosini himoya qilish. Bu yo‘nalish atmosfera havosiga chiqariladigan chiqindilarni kamaytirish, jamoat transportini gaz-ballon yoqilg‘isi va elektr energiyasida ishlashga o‘tkazish, amaldagi ishlab chiqarish quvvatlarining atmosfera havosini ifloslantiruvchi statsionar manbalarida samaradorligi 95 foizdan past bo‘lmagan chang va gazlarni tutib qoluvchi qurilmalarni qo‘llash, elektr energiyasi ishlab chiqaradigan quvvatlarning umumiyligi tarkibida qayta tiklanadigan muqobil manbalar (quyosh va shamol energiyasi) ulushini ko‘paytirish kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

V. Biologik resurslarni muhofaza qilish va takror ishlab chiqarish qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar maydonini kengaytirish, tabiiy muhitdan qizilmiya, kovrak, kovul va boshqa turdagidorivor, ozuqabop va texnik o‘simliklarni olishni qisqartirish, Qizil kitobga kiritilgan, pitomniklarda yetishtirilgan chiroqli tuvaloqlarni tabiatga qo‘yib yuborishni ko‘paytirish, yangi tashkil etiladigan qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarda jayronlarning yangi populatsiyalarini tashkil etish, o‘rmonlar bilan qoplangan o‘rmon fondi hududini ko‘paytirish kabi masalalarni o‘z oldiga qo‘yadi.

VI. Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish bu xozirgi kundagi dolzarb savollardan biri hisoblanib, aholini qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmati bilan qamrab olish, hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash hajmini oshirish, tibbiy chiqindilarni yig‘ish, zararsizlantirish, utilizatsiya qilish va ko‘mish tizimini tashkil etish kabi maqsadli vazifalarni qamrab oladi.

VII. Iqtisodiyotni ekologiyalashtirish va tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishi eng avvalo xalqaro tajribani o‘rgangan holatda amalga oshiriladi. Bunda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning uzoq muddatli dasturiy hujjatlari, konsepsiyalari va strategiyalarini, shu jumladan ularni strategik jihatdan ekologik baholash, shuningdek, ekotizimlarning qayta tiklash imkoniyatlari va ehtimoliy sig‘imini hisobga olgan holda, alohida loyihalarning atrof muhitga ta‘sirini baholash orqali qayta ko‘rib chiqiladi; iqtisodiyotni jadallik bilan ekologiyalashtirish vositalarini yaratiladi; tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga investitsiyalar ortishi uchun shart-sharoitlar yaratish va ekologik toza texnologiyalardan foydalanishni rivojlantiriladi. Bundan tashqari “ifloslantiruvchi to‘laydi” tamoyilini to‘liq ro‘yobga chiqarib, tashlangan chiqindilar va tashlamalar uchun to‘lov miqdorlarini ularning hajmi hamda atrof muhit va aholi salomatligi uchun xavfiga bog‘liq bo‘lishini ta‘minlashni, ekologik neytral texnologiyalar, tovarlar va xizmatlardan foydalanish va olib kirishni rag‘batlantiruvchi soliqlar va bojlar tizimini yaratishni, qayta tiklanuvchi va

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI¹²¹

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

noan'anaviy energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirish, shu jumladan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olingen elektr energiyasini tarmoqqa yetkazib berish bo'yicha maxsus xarid tarifini ("yashil tarif") joriy etishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

VIII. Ekologik nazoratni va atrof muhit muhofazasi sohasidagi davlat boshqaruvini takomillashtirish borasida ishlab chiqarish ustidan ekologik nazorat tizimini takomillashtirish, shu jumladan ekologik sertifikatlash va standartlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

IX. Atrof muhitni muhofaza qilishning ilmiy ta'minotini rivojlantirish ekologik siyosatda juda muhim sanaladi. Bu borada fundamental, amaliy ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

X. Atrof muhitni muhofaza qilish sohasida fuqarolik jamiyatni institutlarini faollashtirish va uzluksiz ta'lim tizimini yaratish eng dolzarb vazifalardan biridir.

XI. Atrof muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish yo'nalishi bu tabiatni muhofaza qilish nafaqat bir davlat milliy standartlarini amalga oshirish bilan yakunlanadi va natija beradi, balki mintaqiy hamda global hamkorlikni keltirib chiqishini ko'rishimiz mumkin. Bunda xorijiy davlatlar bilan atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish va kengaytirish, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar bilan atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish va kengaytirish masalalari ko'ndalang qo'yiladi. Shu jumladan, milliy qonunchilikni O'zbekiston Respublikasining "Turg'un organik ifloslantiruvchi moddalar haqidagi Stokholm konvensiyasini (Stokholm, 2001-yil 22-may) ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq holatga keltirish maqsadida uni takomillashtirish, Minamata konvensiyasiga (Kumamoto shahri, Yaponiya, 2013-yil 10-oktabr) qo'shilishning maqsadga muvofiqligini o'rganib chiqish, Montreal protokoli talablariga rioya qilish maqsadida Ozon qatlamini buzuvchi jismlardan foydalanishni to'xtatish bo'yicha Milliy dasturning yangi tahririni hamda uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish, Parij bitimini amalga oshirish bo'yicha Milliy harakatlar rejasini qabul qilish, xalqaro savdoda alohida xavfli kimyoviy moddalar va pestitsidlarga nisbatan asoslantirilgan dastlabki kelishuv tartib-taomili to'g'risidagi Rotterdam konvensiyasiga (Rotterdam shahri, Niderlandiya, 1998-yil 10-sentabr) qo'shilishning maqsadga muvofiqligini o'rganib chiqish, O'zbekiston Respublikasining Montreal protokoliga Kigali tuzatishlariga (Kigali shahri, Ruanda, 2016-yil 15-oktabr) qo'shilishining maqsadga muvofiqligini o'rganib chiqish, atrof muhit bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilikning axborot olish imkoniyati, ishtiroki va odil sudlovga erishish imkoniyati to'g'risidagi Konvensiyaga (Orxus konvensiyasi, Orxus shahri, Daniya, 1998-yil 25-iyun) qo'shilishning maqsadga muvofiqligini o'rganib chiqish maqsadga muvofiq sanaladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonning ekologik siyosati mamlakatning barqaror rivojlanishi va aholining farovonligini ta'minlashda muhim o'r'in tutadi. Ekologik siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirish, tabiiy muhitni muhofaza qilish va atrof-muhitning sifati va barqarorligi bo'yicha o'zgarish yaratish uchun hukumat, jamiyat va har bir fuqaroning faol ishtiroki zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI¹²²

30-OKTABR

ANDIJON,2024

to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
<https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

2. "2030 yilgacha bo'lган davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.10.2019 yildagi PF-5863-son <https://lex.uz/docs/-4574008>
3. 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son <https://lex.uz/ru/docs/-6303230>
4. "Suv va suvlardan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 6.05.1993 yildagi 300- I-son <https://lex.uz/docs/-59521>
5. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish <https://mfa.uz/uz/pages/ekologiya>
6. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STЛИGIDAGI ISHTIROKI <https://mfa.uz/uz/pages/uzbekistan-i-mejdunarodniye-organizatsi>